

**BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGLARIGA XOS
KREATIV SIFAT VA IJODIY- PEDAGOGIK FAOLIYAT MALAKALARI**

**CREATIVE QUALITIES AND SKILLS OF CREATIVE
PEDAGOGICAL ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS OF PRESCHOOL
EDUCATION**

**ТВОРЧЕСКИЕ КАЧЕСТВА И НАВЫКИ ТВОРЧЕСКО-
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ
ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

JDPI magistranti Xudoyberdiyeva Feruza

Annotatsiya

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi

Annotatsiya

Воспитатель играет важную, почетную и ответственную роль в подготовке нашего молодого поколения к тому, чтобы быть достойными детьми своего народа. Политическая зрелость воспитателя помогает ему осознать свою ответственность перед людьми и обществом за качество воспитания, творчески подходить к воспитательным задачам, постоянно повышать свою квалификацию и развивать своих коллег

Annotation

The educator plays an important, honorable and responsible role in preparing our young generation to be worthy children of their people. The political maturity of the

educator helps him realize his responsibility to people and society for the quality of education, creatively approach educational tasks, constantly improve his skills and develop his colleagues.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish¹ borasida chora-tadbirlar belgilab berildi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi? Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston". 2017. – 488 b.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish;


Tadqiqotchi N.Fayzullaeva bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxasislari tafakkurga ega bo'lish uchun bo'lajak bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglar bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogiika oid bilimlarni puxta o'rganish asosida quyidagi ko'nikma, malakalarni o'zlashtira olishlari zarur deb hisoblaydi:

✚ bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogiikaning asosiy g'oyalari, kontseptsiyalari, qonuniyatlarini va bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish;

✚ bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogiikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish;

✚ asosiy bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogik faktlarni bilish; ta'lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash.

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. E.P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi(3-rasm).



3-rasm. Shaxs kreativligi belgilari (Pol Torrens).

Davrlashtirish (yunon. “peridos” – “doira Bo’ylab aylanish”) – muayyan hodisaning qandaydir yakunlangan jarayonni qamrab olgan vaqt birliklariga ajratilishi Kreativ jihatdan rivojlanishda har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Demak: Kreativlikning rivojlanish davri – ma’lum kreativlik sifatlarining rivojlanish yakuniga etgan qandaydir vaqt birligi. **Kreativlikning rivojlanish bosqichi** – muayyan kreativlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi Shunga ko’ra ma’lum davr va bosqichlarda bo’lajak maktabgacha ta’lim pedagoglarda ham kreativlik sifatleri ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi.

Kreativ tafakkurga ega bo’lajak maktabgacha ta’lim pedagoglari:

-boshqa bo’lajak maktabgacha ta’lim pedagoglarining xayoliga kelmagan g’oyalarni bildiradi;

-o’zlarini ifoda etishning o’ziga xos uslubini tanlaydi;

-ba’zan mavzu aloqasi yo’q yoki g’ayrioddiy savollar beradi;

-yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi;

-g’oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko’radi; Muammoning yechimini topishda noan’anaviy yondashuvni tanlaydi.

- Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi:
- Ijodiy yo'nalganlik;
- Mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- Eruditsiya (bilag'onlik);
- Boy tasavvurga egalik;
- Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik;
- O'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyish etish;
- Refleksiya qobiliyati;
- Hissiyotga boqlik;
- Tavakkal qila olish qobiliyati;
- Tafakkur tezligiga egalik; - Ichki sezgining rivojlanganligi;
- O'ziga xos (orginal) g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyati;
- Innovatsion qobiliyatga egalik;
- Yuksak badiiy qadriyatlarga egalik;
- Mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo'lishlari zarur: Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;

3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar; tadqiqotchilik malakalari;

4) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;

5) tashkilotchilik malakalari;

6) izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) malakalar;

7) texnik-texnologik malakalar Quyida ushbu malakalar guruhlarining mohiyati yoritiladi:

Bilishga oid (gnostik) malakalar:

- Bo'lajak bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy- psixologik o'ziga xosligini inobatga olgan holda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;

- zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda o'quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish;

- ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;

- bo'lajak bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilar tomonidan o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o'zlashtirganlik natijalarini, talabalarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;

- bo'lajak bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarning bilishga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va faolliklarini rivojlantirish bo'yicha turli ko'rinishdagi ishlarni olib borish;

- mashg'ulotda, mashg'ulotdan tashqari sharoitlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, to'garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- bo'lajak bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilar, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;

- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarda sog'lom turmush kechirishga bo'lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigiyenaga amal qilish ko'nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida turli ko'rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish;

- didaktik material va ko'rsatmali qurollarni ishlab chiqish;

- ota-onalarni bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o'ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o'rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan xabardor qilish;

-o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish.

Loyihalash malakalari:

- mashg'ulot yoki tarbiyaviy tadbirlarning loyihalarini yaratish;

- mashg'ulot yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik xaritasini yaratish;

- mashg'ulot yoki tarbiyaviy tadbir mohiyatini bosqichma-bosqich yoritish;

-ta'limiy yoki tarbiyaviy faoliyat maqsadini aniq belgilash;

- maqsadga mos keladigan vazifalarni aniqlash;

- o'quv materialining didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini bayon etish;

- o'quv yoki tarbiyaviy xarakterdagi material mazmunini shakllantirish;

- o'quv yoki tarbiyaviy material mazmunini ochib beradigan bir qancha ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro izchillikni ta'minlash;

- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarni mustaqil fikrlashga rag'batlantiruvchi savollar tizimini ishlab chiqish;

- mashg'ulot yoki tarbiyaviy tadbirning metodik tuzilishini asoslab berish;

- mashg'ulot yoki tarbiyaviy tadbir jarayonida bajariladigan pedagogik topshiriqlar tizimini aniqlash;

- yangi materialni bayon etishda turli zamonaviy yondashuvlarni qo'llash;

- muayyan izchillikka ega test topshiriqlarini ishlab chiqish;

- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarning bilim darajasini tashxislash jarayonini asoslab berish;

- maktabgacha ta'lim pedagoglar jamoasi hamda alohida talabanning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholash mexanizmini yaratish;

Ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar:

- alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit o'quv va tarbiyaviy xarakterdagi materialni shakllantirish;

- o'quv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqalar bilan boyitish;

- o'ziga xos, original o'quv materialini tayyorlash;

- mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;

- O'quv mashg'uloti (mashg'ulot) va tarbiya tadbir uchun ko'rsatmali qurollar to'plamini yaratish;

- mashg'ulot yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;
- mashg'ulot yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun multimediya materiallarini yaratish;
- o'quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;
- turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun bo'lajak bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarning faol ishtirokida video roliklar yaratish;
- mashg'ulot konspektini tayyorlash;
- turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test), baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish;

Tadqiqotchilik malakalari:

- ilmiy izlanish olib borish metod va vositalarini tanlash;
- manbalar bilan ishlash (nazariy tahlil, muhim ma'lumotni topish, tezis,konspekt, referat, kartoteka bilan ishlash, adabiyotlar ro'yxatini tuzish);
- nashr manbalari va axborot texnologiyalari (internet) materiallari bilan tanishish;
- anketa so'rovini tashkil etish;
- zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash, dolzarbligini asoslash;
- mavjud manbalar asosida muammoning ishlanganlik darajasini o'rganish; - bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogiik tajriba olib borish metodikasini ishlab chiqish;
- uch (yoki to'rt) bosqichli bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogiik tajribani ilmiy-metodik tashkil etish;

- ilmiy maqola, axborot va hisobot tayyorlash;
- ilmiy maqolalarni nashrga tayyorlash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish;
- tahlil natijalarini matematik-statistik tahlil qilish;
- statistik tahlil natijalariga ko'ra xulosa chiqarish va ilmiy tavsiyalarni ilgari surish;
- maktabgacha ta'limda pedagogik tajriba natijalarini muhokama qilish (savollar qo'yish, shaxsiy fikrni bildirish, tanqidiy fikrlarni ayta olish, amaliy takliflar berish)

Muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari:

- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilar, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar bilan muloqotda turli shakl, metodlardan foydalanish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabat o'rnatish;
- bo'lajak bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarga ma'lumotlarni yetkazishning samarali yo'l va vositalarini topish;
- topshiriqlar yuzasidan talabning javobi yoki shaxsiy fikrlarini tinglay bilish;
- maktabgacha ta'lim pedagogiik jarayonlarda yuzaga keladigan nizolarning oldini olish, bartaraf etish yoki rivojlantirish;
- jamoa va turli bosqichdagi bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlash;
- jamoada sog'lom raqobatga asoslangan muhitni qaror toptirish;

- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarning faoliyatlarini rag'batlantirish;
- talaba javobidagi xato yoki xatti-harakatidagi kamchiliklarga munosabat bildirish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilar bilan ta'limiy hamkorlikka erishish.

Tashkilotchilik malakalari:

- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;
- mashg'ulot jarayonida vaqtni to'g'ri taqsimlash va rejani samarali bajarish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilar bilan individual ishlarni tashkil etish;
- guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni olib borish;
- maktabgacha ta'lim pedagoglarida maktabgacha ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish;
- maktabgacha ta'lim pedagoglariga o'quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish;
- talabalarning diqqatini boshqarish;
- maktabgacha ta'lim pedagoglari o'rtasida bahs-munozara tashkil etish va uni boshqarish;
- mashg'ulotlarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarning o'quv faolliklarini oshirish, ularning mustaqilligini ta'minlash;

- kichik guruhlarni shakllantirish asosida topshiriqlar bajarilishini taʼminlash;
- boʻlajak maktabgacha taʼlim pedagoglari bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlar roʻyxatini ishlab chiqish.

Izchillikni taʼminlovchi (protsesssual) malakalar:

- oʻquv materialini mazmunini bayon qilishda nutqiy izchillikni taʼminlash;
- ogʻzaki va yozma nutqni bayon qilishda oʻzaro izchillikni qaror toptirish; - boʻlajak maktabgacha taʼlim pedagoglarining mavjud bilimlari bilan yangi oʻzlashtiriladigan bilimlar oʻrtasida muayyan izchillikni yuzaga keltirish;
- boʻlajak maktabgacha taʼlim pedagoglarining mavjud hayotiy qarashlarini yangi gʻoyalar bilan boyitish;
- mashgʻulotda va mashgʻulotdan tashqari tarbiyaviy ishlarda boʻlajak maktabgacha taʼlim pedagoglarini faol faoliyatga undovchi metodlardan foydalanishda muayyan izchillikka erishish;
- boʻlajak maktabgacha taʼlim pedagoglari bilim, koʻnikma va malakalarining shakllanganlik darajasining DTS talablariga muvofiq kelishida maʼlum izchillikka erishish;
- guruh jamoasining ijtimoiy-psixologik holatini oʻrganish metodlaridan foydalanishda boʻlajak maktabgacha taʼlim pedagoglik faoliyat izchilligini taʼminlash;
- boʻlajak maktabgacha taʼlim pedagoglarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholashda doimiy izchillikka erishish.

Texnik-texnologik malakalar:

- taʼlim jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini tatbiq etish;

- mashg'ulot jarayoni mazmunini texnologik pasport va texnologiya xarita yordamida yoritish;
- O'quv materiali mazmunini yorituvchi slaydlarni tayyorlash;
- o'quv mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari, interfaol metodlar yordamida tashkil etish;
- ixtisoslik fani xususiyatidan kelib chiqqan holda turli texnik vositalardan foydalanish;
- mashg'ulotlarda proektorni qo'llay olish;
- o'quv materiallarini audio va video yozuvlari, taqdimot asosida bayon qilish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarda o'quv materialini mustahkamlash va o'quv topshiriqlarini berishda axborot texnologiyalarini qo'llash;
- kompyuter imkoniyatlaridan foydalanishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni kompyuter asosida tashkil etish;
- bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogilarning bilim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini tashxis qilishda kompyuter yordamiga tayanish va boshqalar.

UMUMIY XULOSA

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va

jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston. – 2017. -104 b.

2. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”. 2017. – 488 b.

3.O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.

Internet manbalari

1. Ziyonet.uz

2. www.pedagog.uz

3. <http://bilig.academiascience.or>

4. www.google.uz